

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2020. Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

BAZARBAYEVA AYJAMAL KDIRBAYEVNA

**BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (ПхД) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Bazarbayeva Ayjamal Kdirbayevna

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Базарбаева Айжамал Кдырбаевна

Совершенствование методики развития когнитивных способностей будущих педагогов 29

Базарбаева Айжамал Кдырбаевна

Improvement of the methodology for the development of cognitive abilities of future educators 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2020. Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

BAZARBAYEVA AYJAMAL KDIRBAYEVNA

**BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3794 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Choriyeva Durdona Anvarovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Abdirahimova Dilfuza Aliyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor;

Allaberdievna Qumri Hamrayevna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot

Urgench davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; ye-mail: tdpu_kengash@yedu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” “_____” kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi

R.G.Isyanov
ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi

M.Mamarajabov
ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida bolalarda ta'limga qobiliyatni shakllantirish texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan deklaratsiyada pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, global miqyosda ta'lim tizimlarining sifat samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, pedagoglarning kompetensiyalarini aniqlash, ta'limning xalqaro miqyosda sifat samaradorligini oshirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Jahonda ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida International Association of Universityes dasturlariga ko'ra bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning neyropedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tarbiyalanuvchilarning kognitiv-amaliy faoliyat tajribasini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish omillari ta'sirini empirik nuqtayi nazardan baholash va tahlil qilish, kognitiv-kreativ muhit asosida talabalarni mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlashning didaktik jarayonlarini takomillashtirish, kognitiv o'qitish texnologiyalarini hayotiy tajribaga asoslangan amaliyot bilan integratsiyasini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ta'minlash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak"¹deb ta'kidlagan. Natijada bo'lajak tarbiyachilarni kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847 son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ 4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida" PQ-4312-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.30sentyabr,2020yil

vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda, innovatsion gʻoyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Talabalarning ijodiy, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish boʻyicha F.Abdugapirova, M.B.Alimardonova, G.A.Amanova, G.Bekimbetova, S.Daminova, N.Djamilova, N.Ibragimova, A.A.Jalilov, M.Jumayev, S.X.Jamilova, Sh.K.Karimova, N.Muslimov, Sh.Muxamedova, Z.T.Nishonova tadqiqot ishlari olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligidan G.K.Vaisova, P.I.Dennison, A.A.Derkach, V.V.Lavrentev, M.I.Lisina, A.N.Leontev, S.V.Malanov, V.A.Moskvin, J.Piaje, A.I.Savenkov, S.D.Sajina, V.V.Safin, V.M.Slutskiy, Ye.O.Smirmova, L.Yu.Subbotina, K.Xannaford tomonidan hamkorlikdagi kognitiv faoliyat va jamoaviy oʻquv faoliyatini tashkil etish, oʻqitishning turli shakl va metodlarini uygʻunlashtirish masalalarini tadqiq etishgan.

Xorijlik olimlardan Anderson J.R, Alcock S., Cullen J., St George, A, Barker J. Ye., Semenov A. D., Michaelson L., Provan L. S., Snyder H. R., Munakata Y, Baumer S., Ferholt B., Lecusay R, Becker D.R., McClelland M. M., Loprinzi P., Trost, S. G, Bjorklund D.F., Brown R.D, Best J.R., Miller Ph.A, Yerys B.E., Bertollo J.R, Kenworthy L., Dawson G., Marco E.J., Schultz R.T, Gardner Hlar esa kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish masalalarini tadqiq etishgan.

Tadqiqotning maqsadi boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Oʻzbekiston Milliy pedagogika universiteti, Qoʻqon davlat pedagogika instituti va Nukus davlat pedagogika institutining 408 nafar talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning, shakl, metod va vositalari tashkil

qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik-psixologik, metodik adabiyotlar, pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, nazariy va amaliy tavsifga asoslangan modellashtirish, so'rov-diyagnostik (suhbat, anketa) hamda matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda o'z aksini topgan:

bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kognitiv qobiliyatning tarkibiy qismlari bo'lgan motivatsion-rag'batlovchi, mazmunli-faoliyatli, emotsional-baholovchi komponentlarga doimiy integratsiyasilash hamda, ijodiy, mustaqillik, o'z-o'zini namoyon etish funksiyalarni uyg'unligini pedagogik shart sharoitlarini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish modeli amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, muntazam harakat orqali o'z-o'zini namoyon etish, shaxsiy ijobiy tasavvurini oshirishga intiluvchan tarbiyalanuvchining shaxsiy salohiyatini integratsiyasilash hamda bolalarda ta'limga qobiliyatni shakllantirish vositasi sifatida o'zaro hamkorlikdagi faoliyat tuzilmasini bosqichma-bosqich, aniqlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi intellektni rivojlantirish, ijodiy emotsiyani barqarorlashtirish va savodxonlikni oshirish hamda individual, harakatlanuvchi, shakllar uyg'unligini meta-analiz metodi (tahlil va baholash, kreativ masalalar, pedagogik tavsiyalar, interfaol o'qitish, shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan metodlar) orqali bosqichma-bosqich jadallashtirish algoritmini kiritish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini samaradorligi shaxsiy va hayotiy vaziyatli muammolarni, tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishga yo'naltirish, do'stona munosabatlarni frontal shakllarda olib borish hamda bolalarga teatrlashtirilgan faoliyatni tashkil etish o'quv to'plami tarkibiy qismlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

"Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi" nomli qo'shimcha mashg'ulotlar dasturi ishlab chiqilgan "Mektepke shekemgi talim ham tarbiyani sholkemlestiriv" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024-yil 04-iyuldagi "11/3.1" sonli karoriga asosan(Guvohnoma 2024/254U-414));

bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirishga doir rivojlantiruvchi mashqlar majmui ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlarga hamda Bo'lajak tarbiyachilarning ta'limga qobiliyatni shakllantirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va chet ellik olimlar, shuningdek, bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini tashkil etishga doir ish tajribalarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi metodlarning qo'llanilganligi, tahlil

va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining validligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasining mazmuni va mohiyatining yoritib berilganligi, qobiliyatni shakllantirishning yosh va pedagogik-psixologik o'ziga xosliklarining aniqlashtirilganligi, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirish komponentlari va funksiyalarining belgilab berilganligi, hamkorlikdagi faoliyatning shakllantirishga doir didaktik imkoniyatlarining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirishning pedagogik modeli, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish turlari va shakllarini qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish texnologiyasini qo'llash bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi, bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarining takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari motivatsion-rag'batlovchi, mazmunli-faoliyatli, emotsional-baholovchi komponentlarni integratsiyasilash xamda, ijodiy, mustaqillik, o'z-o'zini namoyon etish funksiyalarni uyg'unligiga ustuborlik berish asosida aniqlashtirishga doir takliflar asosida "Mektepke shekemgi talim ham tarbiyani sholkemlestiriv" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 15-marttagi 11-05-1639/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirishning metodik jihatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish modeli amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, faol harakat orqali o'z-o'zini namoyon etish, shaxsiy faollikni oshirishga intiluvchan tarbiyalanuvchining shaxsiy salohiyatini integratsiyasilash hamda bolalarda ta'linga qobiliyatni shakllantirish vositasi sifatida hamkorlikdagi faoliyat tuzilmasini aniqlash asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar "Mektepke shekemgi talim ham tarbiyani sholkemlestiriv" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 15-marttagi 11-05-1639/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirishda interaktiv vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirish metodikasi intellektni rivojlantirish, ijodiy emotsiyani barqarorlashtirish va savodxonlikni oshirish individual, harakatlanuvchi, shakllar

uyg'unligini meta-analiz metodi orqali bosqichma-bosqich jadallashtirish algoritmi asosida takomillashtirishga doir taklif "Mektepke shekemgi talim ham tarbiyani sholkemlestiriv" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 15-marttagi 11-05-1639/04-son dalolatnomasi).. Natijada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kognitiv texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirishga erishilgan.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligi shaxsiy va hayotiy vaziyatli muammolarni, tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishga yunaltirish, bo'yicha tavsiyalar "Mektepke shekemgi talim ham tarbiyani sholkemlestiriv" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 15-marttagi 11-05-1639/04-son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan. Oliy attestatsiya komissiyasining Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 4 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 138 sahifa asosiy matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ushbu tadqiqot muammosining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va obyekt hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va ularning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish-pedagogik muammolari, bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari, bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarning kelgusida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali faoliyat yuritishlari uchun MTT tarbiyachisiga xos barcha kognitiv qobiliyatlarini egallab, amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishlari zarur.

Kognitiv soʻzi inglizcha (lotin) “cognize” soʻzidan olingan boʻlib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki “cognition”– bilish, tushinish kabi maʼnolarni beradi. Oʻz oʻrnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bogʻliq hodisadir. Demak, kognitiv – bu shaxsiy fikr va kechinmalarini tahlil qilishga yoʻnaltirilgan mulohaza yuritish. Shaxsiy xatti-harakatlarni anglash, fikrni tahlil qilish, idrok etish va taʼlimning boshqa shakllari yordamida biz dunyoni anglaymiz. Kognitiv tufayli inson taʼlim va faoliyatning asl subyektiga aylanadi.

Pedagoglar tomonidan talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar va ishlanmalar sohaga katta eʼtibor qaratayotganini koʻrsatadi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar, asosan, pedagogika, psixologiya va taʼlim metodologiyasini, talabalarning intellektual salohiyati, aniq fikrlash, muammo yechish qobiliyatlari va ijodiy harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Kognitiv qobiliyatlar – insonning fikrlash jarayoni, bilimlarni saqlash, tushunish va ilmiy ishlash qobiliyatlari bilan bogʻliq boʻlgan salohiyatni anglatadi.

Oʻzbekistonda boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar, taʼlimning samaradorligini oshirish va talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borgan olimlardan Sh.Alimov oliy taʼlim muassasalarida talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish boʻyicha tadqiqotlari asosan aniq fanlar taʼlimiga va talabalarning analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Z.Raxmatullayevaning tadqiqotlari talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion taʼlim metodlarini qoʻllashga qaratilgan boʻlib, zamonaviy oʻqitish texnologiyalari va metodologiyalariga yoʻnaltirilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish asosida kognitiv qobiliyatga mualliflik taʼrifimizni ishlab chiqdik. “Boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlari tarbiyachilarning aqliy va maʼnaviy oʻsishiga, muammolarni hal qilishga, ijodiy fikrlash va toʻgʻri qaror qabul qilishga taʼsir koʻrsatadi. “

Boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik muammolari innovatsion pedagogik usullar, individual yondashuv, zamonaviy texnologiyalar va pedagoglarning professional tayyorgarligiga bogʻliq boʻlib, ijtimoiy va madaniy kabi omillarni hisobga olish ham muhimdir. Agar bu muammolarga yetuk va samarali yondashilsa, boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni samarali va muvaffaqiyatli boʻladi. Boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda madaniy va ijtimoiy omillar toʻgʻri yoʻlga qoʻyilmasa, taʼlim jarayonini faqat texnik yoʻllar bilan yuqoriga koʻtarish murakkablashadi.

Boʻlajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy maqsadi mantiqiy fikrlash va samarali taʼlim berish qobiliyatlarini takomillashtirishdir. Bu maqsadga erishish uchun pedagoglar aqliy va maʼnaviy oʻsishga, ijodiy va tanqidiy fikrlashga yordam berishga moʻljallangan pedagogik strategiyalar va usullardan foydalanishlari kerak. Ularning fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlarini shakllantirish, tarbiyalanuvchilariga samarali va individual taʼlim berishda muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning kognitiv qobiliyatlarini asosiy funksiyalari

Yangi bilimlarni o‘zlashtirish	Rejalarni qabul qilish	Tanqidiy fikrlash:	Ijodiy fikrlash
Tarbiyachilarning yangi konsepsiyalar va bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati.	Kognitiv qobiliyatlar, tarbiyachining murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini belgilaydi.	Har qanday vaziyatda tafakkurni qo‘llash va amaliy muammolarni hal qilishda tanqidiy yondashuvlar.	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilariga innovatsion va original g‘oyalar bilan yondashishi, yangi shakllar va usullar ishlab chiqishi.


Yuqoridagilarni umumlashtirib, bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish talabalarning muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri va oqilona qaror qabul qila olishi, asosiysi hamma bilan samimiy muloqotga kirisha olishi, o‘z kasbining mutaxasisi bo‘lishini anglatadi, degan xulosaga keldik.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning amaliy-texnologik tizimi”** deb nomlagan ikkinchi bobida bo‘lajak tarbiyachilarning “Maktabgacha ta’lim –tarbiyani tashkil etish” fanida kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari, ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik tizimi, “Maktabgacha ta’lim–tarbiyani tashkil etish” fani orqali kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikalari yoritib berilgan.

Biz taklif etgan bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yondoshuvlar, ularning shaxsiy va professional rivojini ta’minlash, ta’limning samaradorligini oshirish va tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirilgan. Kognitiv qobiliyatlar faqat ma’rifiy bilimlar bilan cheklanmay, balki muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash, ma’lumotni qayta ishlash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham qamrab oladi.

Bo‘lajak talabalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan yondoshuvlar: interaktiv pedagogik yondashuv; muammoli ta’lim yondashuv; shaxsiy va individual ta’lim yondashuvi; refleksiv yondashuv; ma’naviy, ahloqiy va ijtimoiy jarayonlarga yo‘naltirilgan yondashuv; kognitiv strategiyalarni o‘rganish yondashuvi, shaxsiy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, faol yondashuv hamda komponentli yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Innovatsion yondashuvlar, faol ta’lim metodlari, amaliy faoliyat va individual rivojlanish uchun yaratilgan imkoniyatlar kognitiv salohiyatni oshiradi hamda tarbiyachilarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantiradi. Bu talabalarning zamon talablariga muvofiq o‘qitish strategiyalari asosida kreativ, interaktiv metod va texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish — ularning kelajakdagi professional faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur omildir. Didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish esa bu jarayonning poydevorini tashkil qiladi.




1.-rasm. Bo'lajak tarbiyachilarda kognitiv qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi

Rivojlangan kognitiv qobiliyatlar tarbiyachiga bilimlarini tarbiyalanuvchilariga to'g'ri va samarali yetkazishga, ularning muammolarini hal qilishga yordam beradi. Rivojlangan kognitiv qobiliyatlarga ega tarbiyachi, tarbiyalanuvchilariga yuqori saviyada ta'lim berishga, ularning individual ehtiyojlariga moslashishga va ijodiy fikrlashni stimullashtirishga imkoniyat yaratadi. Rivojlangan kognitiv qobiliyatlar tarbiyachiga bilimlarini tarbiyalanuvchilariga to'g'ri va samarali yetkazishga, ularning muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish metodikasiga e'tibor qaratish ularning o'qish samaradorligini oshiradi. Ushbu metodikani takomillashtirishda quyidagi jihatlar muhimdir:

Interfaol ta'lim usullarini joriy etish: talabalar faolligini oshirish uchun muhokama, guruhli ish, loyiha asosida ta'lim, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi yondashuvlar qo'llaniladi. Bu usullar talabalarning o'zaro fikr almashinuvi va mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: talabalar o'z fikrlarini tizimli shaklda ifodalash, dalillar asosida fikrlash va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantirishlari zarur. Bu ularga murakkab vaziyatlarda samarali yechimlarni topishda yordam beradi.



2-rasm. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirish modeli

Ijodiy yondashuvlarni rag'batlantirish: talabalarga nostandart vazifalar berish, yangi yondashuvlar izlash va innovatsion fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu ijodkorlikni oshirish orqali pedagogik faoliyatni yanada boyitadi.

Bilimlarni chuqur o'zlashtirish: talabalarni faqatgina faktlarni yodlashga emas, balki bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash va amaliyotda qo'llashga o'rgatish muhimdir. Bu esa ularning kognitiv salohiyatini mustahkamlaydi.

Individual yondashuvni ta'minlash: har bir talabaning o'rganish uslubi va qobiliyatlari turlicha bo'lgani uchun, metodika shaxsiy ehtiyoj va imkoniyatlarni hisobga olgan holda moslashtirilishi kerak.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni ularning professional rivojlanishi va intellektual faolligini kuchaytirishga yo'naltirilgan. Bu jarayonda turli pedagogik usullar, metodlar va yondashuvlar keng qo'llanilib, tarbiyachilarning aqliy salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biz ishlab chiqqan model kognitiv qobiliyatlarga ega bo'lgan tarbiyachiga o'z navbatida tarbiyalanuvchilarga sifatli ta'lim berish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish imkoniyatini beradi. Maktabgacha katta yoshdagi bola shaxsi xususiyatlari (shaxs komponenti)ni o'z ichiga qamrab oladi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yondoshuvlar, ularning pedagogik faoliyatida samaradorlik va ijodiylikni oshirishga yo'naltirilgan. Bu yondoshuvlarning barchasi turli holatlarda va talablarga muvofiq tarzda qo'llanilishi kerak.

Biz ishlab chiqqan model bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirish jarayoni haqidagi tasavvurini ochib beradi, belgilangan pedagogik sharoitlarning haqiqatini aks ettiradi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy interaktiv metodlar, yordamchi dasturlar, virtual o'qitish muhitlari va boshqa texnologiyalardan samarali foydalanish muhimdir. Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan o'yinli metodlar (masalan, didaktik o'yinlar, modellashtirish, drammatizatsiya) orqali eslab qolish, diqqatni jamlash va ijodiy fikrlash singari kognitiv jarayonlar kuchayadi. Vizual materiallar (sxemalar, grafiklar, diagrammalar) orqali esa axborotni tez va samarali o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishi natijasida pedagoglar yangi muammolarni samarali hal etish, samarali strategiyalar ishlab chiqish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni mustahkamlash hamda bolalar bilan individual tarzda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy metod va strategiyalar talabalarning aqliy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida interaktiv usullardan foydalanish, xususan guruhlarda ishlash, muammoli topshiriqlarni hal qilish, fikr almashish va bahs-munozaralar tashkil etish — talabalarni bilim olish jarayoniga faol jalb qiladi. Bu usullar orqali talabalar o'z fikrlarini mustaqil shakllantirish, yangi g'oyalar

yaratish, tanqidiy yondashish va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Interaktiv metodlar nafaqat bilimni chuqur o'zlashtirish, balki tafakkurni faollashtirish va real muammolarni hal qilishga qodir bo'lishga yordam beradi. Quyidagi metodlar aynan shu maqsadga xizmat qiladi: Muammo asosida o'qitish (Problem-Based Learning) – talabalarga mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish va yangicha yondashuvlar hayotiy masalalarni hal qilishga qaratilgan; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodida talabalar o'quv materialini chuqur tahlil qilib, fikr yuritishga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi; raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish metodi video, animatsiya, interaktiv taqdimotlar va onlayn simulyatsiyalar yordamida o'quv jarayonini samarali borishiga yordam beradi; rol o'ynash (role-play) metodida talabalar turli rollarda ishtirok etib, muayyan vaziyatlarni amaliy tarzda tahlil qilgan holda ijtimoiy faolligini va muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondasha olish qobiliyatini oshiradi; kollaborativ o'qitish metodi guruhiy ishlar orqali talabalar birgalikda bilim oladilar, fikr almashadilar va hamkorlikda muammolarni hal qilish asosida jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi; diskussiya va "brainstorming" usulida talabalar guruhlar bilan ishlash orqali o'z fikrlarini aytadilar, yangicha yondashuvlar ishlab chiqadilar va bu metod ularda ochiq fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va o'z fikrini asoslab berish malakasini shakllantiradi; simulyatsiyalar va o'yinli metodlari real hayotdagi jarayonlar modellashtirilgan muhitda o'rganilib, qarorlar qabul qilish va muammoni yechishga o'rganadilar; debatlar metodida talabalar o'z qarashlarini asoslab, boshqa fikrlarga qarshi dalillar keltirish orqali tanqidiy fikrlash, muloqot va argumentatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu innovatsion va interaktiv metodlar yordamida talabalar dars jarayonida faollashadi, chuqur fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashish va o'z fikrini asosli ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning kognitiv salohiyatini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligi”** bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsad va vazifalari, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlili berilgan.

Tadqiqotimizning tajriba-sinov jarayonlari tashkil etish va o'tkazish tartibi ishlab chiqildi, tadqiqot ishidagi bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirishga doir rivojlantiruvchi mashqlar majmui asosida auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limga tatbiq qilindi.

Tajriba uch bosqichda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan: birinchi bosqich – tasdiqlovchi (2021–2022 o'quv yili), ikkinchisi – aniqlovchi (2022–2023 o'quv yili) va uchinchi bosqich – sinovdan o'tkazish bosqichi (2023–2024 o'quv yili).

Tasdiqlovchi tajribaning maqsadi – OTMda bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qartilgan muammolarni ajratish va ularni xal qilish

yo‘llarini izlashdan iborat.

Aniqlovchi tajriba maqsadi – tadqiqotga umumiy tayyorgarlikni uyushtirish, bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning shakl va metodlarini o‘rganish, metodik ishlarni olib borish, auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim uchun topshiriqlarni ishlab chiqishdan iborat.

Pedagogik tajriba-sinov maqsadi – tadqiqot o‘tkazish, olingan natijalar asosida OTMda bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish yuzasidan ishonchli ma’lumotlarni yig‘ishdan iborat. Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish, muvofiqlashtirish va baholash yuzasidan meyoriy-hujjatlar asosida amalga oshirildi. Tajriba-sinov jarayonlarining birinchi tashkiliy-tayyorgarlik bosqichida tajriba-sinov maydonlari xamda ishtirokchilari, pedagogik jarayon tavsiflari belgilandi, metodik va tashkiliy ta’minotlari ishlab chiqildi. Tajriba-sinov natijalari bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirishga doir rivojlantiruvchi mashqlar majmuini bajarish bo‘icha dastlabki va yakuniy nazoratlarning natijalari olinib, tajriba jarayonlari qayd yetib borildi.

Oliy ta’lim muassasalarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishidan bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘icha talaba-respondentlar ishtirok yetib xar bir ta’lim muassasasidan, ya’ni Toshkent davlat pedagogika universitetidan 138 nafar, Qo‘qon davlat pedagogika institutidan NDPIda “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishidan 136 nafar va Nukus davlat pedagogika institutidan 134 nafar “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabalari tanlab olindi. Ushbu tanlab olingan talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Tajriba sinov ishlariga ko‘ra bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha modelda va yuqoridagi bandlarda tavsiflangan mezonlar Kasbiy, axborot bilan ishlash, pragmatik va umumiy (kasbiy kommunikativ) mezonlar asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish darajalariga mos holda amalga oshirildi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirishga doir rivojlantiruvchi mashqlar majmuini joriy etish mezon va darajalari kuzatish asosida baholab borildi.


Tajriba-sinov ishlarini tadqiq etishda muayyan tartib va dastur asosida tashkil etilish jarayonining samaradorligi ta’minladi. Tajriba-sinov ishlari dasturida talabalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish darajalari aniqlashtirildi. Tajriba-sinov ishlarida quyidagi mezonlardan foydalanildi: kasbiy mezon-kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda kasbiy mezon ko‘rsatkichlari — bu shaxsning intellektual faoliyati, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini baholash uchun ishlatiladi; axborot bilan ishlash mezon: bu shaxsni axborotni olish, tahlil qilish, saqlash, tarqatish va undan samarali foydalanish qobiliyatini baholash uchun ishlatiladigan mezonlardir: pragmatik mezon- bu axborotni, qarorlar qabul qilishdagi yoki faoliyatning samaradorligini aniqlashda foydalaniladigan mezon, uning amaliy va real jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Umumiy (kasbiy kommunikativ) mezon- bu ish faoliyatidagi kommunikatsiyani baholash uchun ishlatiladigan mezonlardir.

Bo‘lajak talabalarning kognitiv qobiliyatlari tuzilishini baholash bo‘yicha yakuniy nazorat natijalari

Mezonlar	Tajriba guruhi talaba soni	Nazorat guruhi talaba soni	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi		
			Yuqori	o‘rta	past	Yuqori	o‘rta	past
Kasbiy	205	203	41	129	35	20	64	119
Axborotli	205	203	38	129	38	19	61	123
Pragmatic	205	203	40	126	39	21	60	122
Umumiy(kasbiy kommunikativ)	205	203	41	126	38	20	63	120

Bo‘lajak talabalarning kognitiv qobiliyatlari tuzilishini baholash bo‘yicha yakuniy nazorat natijalariga ko‘ra:

Kasbiy mezonni bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarida mos ravishda baholashning yuqori darajasi 20,0% va 9,9% ni, o‘rta darajadagi o‘zlashtirish 62,9% va 31,5% ni, past darajadagi o‘zlashtiruvchilar 17,1% va 58,6% ni tashkil etilishi kuzatildi. Bunga ko‘ra Kasbiy mezonni bo‘yicha tajriba guruhlarining nazorat guruhlariga nisbatan yuqori darajasi 10,1%ga, o‘rta darajasi 31,4%ga o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, past darajadagi o‘zlashtirish qiymatlarida 41,5% ga kamayish mavjudligi aniqlandi. Bu esa ushbu mezon bo‘yicha tajriba guruhlarining o‘zlashtirish darajali sifat darajasiga ko‘tarilganligini bildiradi.



3-rasm. Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha yakuniy nazorat natijalari mezonlar bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi mashqlar majmuasini bajarish samaradorligi dastlabki nazorat ishida 1,00 ga teng bo‘lgan bo‘lsa, bosqichli nazoratda 1,13 barobar (13%) va yakuniy nazoratda esa 1,15 barobar (15%)ga oshgani statistik usullar yordamida tasdiqlandi.

XULOSA

“Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha ilmiy tahlillar, metodik ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan va samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga ta‘sir etuvchi omillarga (pedagogik va psixologik) kuchli e‘tibor qaratish zarurati so‘nggi yillarda ta‘lim paradigmasining o‘zgarishi va oliy ta‘lim tizimida yangi avlod davlat ta‘lim standartlariga o‘tilishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ta‘lim muassasi o‘quv-tarbiya amaliyoti talabaning muvafaqqiyatli ijtimoiylashuviga, shaxsiy rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatishi, mazkur kompetentlik turini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi aniqlangan;

2. Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tizimida yuz berayotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish orqali jamiyat hayotida tizimda bo‘layotgan o‘zgarishlarda faol ishtirok etish, kasbiy malaka talablari rivojlantirilgan;

3. Bo‘lajak tarbiyachilarda kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va mexanizmlari bilan bog‘liq olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kognitiv qobiliyatining tasavvur turlari (anketa so‘rov, interfaol texnologiyalar, kreativ fikralash, seminar-treninglar) asosida aniqlangan;

4. Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish modelida ijtimoiy ehtiyoj, maqsad, vazifalar, tamoyillar, yondashuvlar, komponentlar, ishning mazmuni va natijalari tuzilmasi, tarkibi takomillashtirilgan;

5. Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning darajali mezonlar tavsifi (kasbiy, axborotni qabul qilish, pragmatik, umumkasbiy) asosida aniqlangan;

6. Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlanishini baholash darajasi (past, o‘rta, yuqori) aniqlangan;

7. Tajriba-sinov ishlarining o‘ziga xos xususiyati diagnostik va rivojlatiruvchi bosqichlarning uyg‘unligi hisoblandi va bu bo‘lajak tarbiyachilarda kognitiv qobiliyatlarining alohida komponentlariga pedagogik ta‘sir etish bilan bog‘liq. Bo‘lajak tarbiyachilarda kognitiv qobiliyatlarini tashhislash reflektiv malakalarni rivojlantirishgan.

TAVSIYALAR:

1. Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarini kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

2. Maktabgacha ta‘lim bakalavriyat yo‘nalishi o‘quv fanlari resurslarini yaratish texnologiyalarini takomillashtirish.

3. Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarini kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc 03/30.01.2020. Ped.26.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА**

БАЗАРБАЕВА АЙЖАМАЛ КДИРБАЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ
СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ**

13.00.08 – Теория и методика дошкольного образования и воспитания

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей

аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером Б2022.2.PhD/Ped/3794

Диссертация была выполнена в Национальном педагогическом университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский) на сайте Научного совета (www.tdpu.uz) и на информационно-образовательном портале «Зиёнет» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Чориева Дурдона Анваровна

доктор философии педагогических наук (PhD),
доцент.

Официальные оппоненты:

Абдурахимова Дилфуза Алиевна

доктор педагогических наук (DSc), профессор

Аллабердиева Кумри Хамраевна

доктор философии педагогических наук (PhD),
доцент.

Ведущая организация:

**Ургенчский государственный
педагогический институт**

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета Национального педагогического университета Узбекистана, DSc 03/30.01.2020. Ped.26.01, «___» 2025 года в _____ часов. Адрес: 100011, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86. электронная почта: tdpu_kengash@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Национального педагогического университета Узбекистана (зарегистрирован под номером _____). (Адрес: 100011, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (99871) 276-79-11; факс: (99871) 276-80-86. э-маил: tdpu_kengash@edu.uz.)

Автореферат диссертации был распространен _____ дня, "_____" 2025 года.
(Зарегистрированный протокол номер _____ от «____» _____ 2025 г.).

З.Н.Мамаражабова

Председатель Научного Совета по
присуждению учёных степеней,
д.п.н., профессор

Р.Г.Исянов

Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
к.п.н., доцент

М.Э.Мамаражабов

Председатель Научного семинара при
Научном Совете по присуждению

Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой системе образования технологии формирования образовательных навыков у детей внедряются как приоритетное направление совершенствования методики развития когнитивных способностей будущих воспитателей. Принятая ЮНЕСКО декларация разработана в целях поддержки профессионального развития педагогов и приведения их в соответствие с международными стандартами, повышения качества и эффективности систем образования в глобальном масштабе и направлена на выявление компетенций педагогов, повышение качества и эффективности образования в международном масштабе.

В мировых образовательных и научно-исследовательских центрах проводятся научные исследования, направленные на выяснение нейропедагогических возможностей совершенствования методики развития познавательных способностей будущих педагогов, совершенствование методической системы формирования опыта познавательно-практической деятельности педагогов в соответствии с программами Международной ассоциации университетов. Проводятся исследования, направленные на оценку и анализ влияния факторов на совершенствование методики развития познавательных способностей педагогов с эмпирической точки зрения, совершенствование дидактических процессов стимулирования самостоятельной учебной деятельности студентов на основе познавательно-творческой среды, обеспечение интеграции технологий когнитивного обучения с практикой, основанной на жизненном опыте.

В последние годы в нашей республике проводятся научные исследования по обеспечению методики развития познавательных способностей будущих педагогов, созданию нормативной базы для подготовки высококвалифицированных кадров, обладающих современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, самостоятельно мыслящих. «Сегодня каждый учитель и воспитатель, преподаватель вуза должен уметь применять в учебно-воспитательном процессе новейшие позитивные новации в сфере образования и науки, обладать глубокими знаниями и мировоззрением, словом, быть самыми передовыми представителями нашего времени и общества»². В результате расширились педагогические возможности совершенствования методики развития познавательных способностей будущих педагогов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4884 «О

² Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников. 30 сентября 2020 года

дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования» от 6 ноября 2020 года, Постановление Кабинета Министров № 23 «О развитии государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года» от 18 января 2021 года, Постановление Кабинета Министров №391 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности дошкольных образовательных организаций» от 13 мая 2019 года], Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4312 «О Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан» от 8 октября 2019 года, № ПП-4312 «О Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан» Система дошкольного образования до 2030 года» и других нормативно-правовых документов, регламентирующие данную деятельность.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики И «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Исследования по проблемам формирования творческих и креативных качеств и развития когнитивных способностей студентов проводили Ф.Абдугапирова, М.Б.Алимардонова, Г.Аманова, Г.Бекимбетова, С.Даминова, Н.Джамилова, Н.Ибрагимова, А.А.Джалилов, М.Джумаев, С.Х.Жамилова, Ш.К.Каримова, Н.Муслимов, Ш.Мухамедова, З.Т.Нишонова.

